



## 2020- yil yanvar - oktabr oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Samarqand viloyatida jami 4687,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 105,7 %ni tashkil etdi.




### 2020-yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.




**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**2020– yil yanvar–oktabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari**

*mlrd. so'm*



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3,0 mingtani tashkil etib, o'tgan 2019- yilning mos davriga nisbatan 278 taga oshdi.

Qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda qurilish ishlari hajmining o'tgan yilga nisbatan **113,2 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **74,0 %**) oshganligi hisobidandir.




**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2764</b>	<b>3042</b>	<b>110,1</b>
Samarqand sh.	1002	1059	105,7
Kattaqo'rg'on sh.	80	105	131,3
tumanlar:			
Oqdaryo	118	141	119,5
Bulung'ur	57	68	119,3
Jomboy	100	117	117,0
Ishtixon	131	146	111,5
Kattaqo'rg'on	113	120	106,2
Qo'shrabot	69	67	97,1
Narpay	70	84	120,0
Payariq	213	241	113,1
Pastdarg'om	278	311	111,9
Paxtachi	56	63	112,5
Samarqand	114	132	115,8
Nurobod	47	43	91,5
Urgut	195	213	109,2
Toyloq	121	132	109,1



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalarining hududlar kesimida  
ulushi (% da) 01.11.2020- yil holatiga**




**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand sh. (34,8 %), Pastdarg'om (10,2 %) va Payariq (7,9 %) tumanlardir.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **572,9** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **4,9** marta koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **9,5 %** punktga koʻpaygan.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **48,7 %** yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **3,4** marta koʻp), Pstdargʻom (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,9 %**), Toyloq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,6 %**), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,2 %** yoki 2019- yilning yanvar- oktabr oyiga nisbatan **4,2** marta koʻp), Paxtachi (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,6 %**) Kattaqoʻrgʻon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,0 %**), Oqdaryo (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,5 %**) va Bulungʻur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,5 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

- 2020- yil yanvar-oktabr
- 2019- yil yanvar-oktabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **62,8 %** bajarilib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,6 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **100,4 %**ni tashkil etgan holda **2625,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,0 %**ni tashkil etib, **1171,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **83,1 %**ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi

ulushi % da,

mlrd. soʻm




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **232,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **104,0** %ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4454,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **156,9** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **5,0** % va **95,0** %ni tashkil etgan.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da

2020- yil yanvar-oktabr



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2020- yil yanvar-oktabr

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-oktabr

67,5 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **67,9 %** yoki **3165,5** mlrd. so'mni tashkil etgan.

17,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **537,1** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **17,0 %**ni tashkil etdi.


47,9%

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1515,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **47,9 %**ni tashkil etdi.

35,1%

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1112,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,1 %**ni tashkil etdi.





**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-oktabr oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4687,5</b>	<b>105,7</b>	<b>3165,5</b>
Samarqand sh.	1604,9	105,2	1083,8
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	85,6	107,8	57,9
Oqdaryo	382,1	104,7	258,0
Bulung'ur	121,1	116,7	81,8
Jomboy	228,4	104,1	154,2
Ishtixon	227,6	103,8	153,7
Kattaqo'rg'on	155,1	109,9	104,7
Qo'shrabot	116,1	100,7	78,4
Narpay	151,2	101,3	102,1
Payariq	296,3	102,9	200,1
Pastdarg'om	339,6	110,1	229,3
Paxtachi	145,3	111,4	98,1
Samarqand	222,4	102,3	150,2
Nurobod	79,6	101,8	53,8
Urgut	261,5	103,5	176,6
Toyloq	270,7	112,8	182,8

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2019- yil yanvar-oktabr

7,3



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

14,0



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

78,7



Bino va inshootlarni  
qurish

2020- yil yanvar-oktabr

7,2



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

18,8



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

74,0



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,3 %**ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **5,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,1 %** punktga ko'payib, **59,0 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **11,2 %** punktga kamayib, **33,7%** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **35,9 %**ni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **23,8 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **63,7 %** (**21,8 %** punktga kamayish), hamda norasmiy sektorning ulushi **0,4 %** (**1,9 %** punktga kamayish)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **1,7 %**ni tashkil etdi. Qolgan **98,3 %** ulush esa kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.





## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-oktabr oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Samarqand sh.  
1604,9

2

Oqdaryo  
382,1

3 Pastdarg'om  
339,6



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Nurobod  
79,6

2

Kattaqo'rg'on sh.  
85,6

3 Qo'shrabot  
116,1





**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*

